NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

# PAREMIOLOGIYA TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA SOHASI SIFATIDA

**Kushbakova Dilnoza Avalboyevna,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti 1-bosqich tayanch-doktoranti

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada tilshunoslikning dolzarb va ilmiy izlanishda davom etilayotgan sohalaridan biri bo'lgan leksikologiyaning o'rganish obyektlaridan biri bo'lgan paremiologik birliklarning kelib chiqishi va rivojlanib borishi aks ettirilgan.Xalq og'zaki ijodining sara namunalaridan bo'lgan maqol va matallar,aforizmlarni tizimli o'rganish jarayonlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Maqol, xalqona iboralar, hikmatli so'zlar va barqaror birliklarning semantik hamda pragmatik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada paremiologiya sohasida tadqiqot olib borgan tilshunos olimlarning nazariy qarashlari misollar asosida ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *poetika, maqol, matal, aforizm, paremiologiya, antiteza, alliteratsiya, kinoya, kontekst,hikmatli so'zlar, badiiy til, frazeologizm, kompozitsiyalar.*

## ПАРЕМИОЛОГИЯ КАК ОТДЕЛЬНАЯ ОТРАСЛЬ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

***Аннотация:*** *В статье отражены происхождение и развитие паремиологических единиц — одного из объектов изучения лексикологии, которая является одной из актуальных и активно исследуемых отраслей языкознания. Лингвистически анализируются процессы системного изучения пословиц, поговорок и афоризмов, относящихся к лучшим образцам устного народного творчества. Раскрываются семантические и прагматические функции пословиц, народных выражений, изречений и устойчивых единиц. Кроме того, на примерах излагаются теоретические взгляды учёных-лингвистов, проводивших исследования в области паремиологии.*

***Ключевые слова:*** *поэтика, пословица, поговорка, афоризм, паремиология, антитеза, аллитерация, ирония, контекст, изречения, художественный язык, фразеологизм, композиции.*

## PAREMIOLOGY AS A SEPARATE BRANCH OF LINGUISTICS

***Abstract:*** *The article reflects the origin and development of paremiological units, one of the objects of study of lexicology, which is among the topical and actively researched branches of linguistics. The processes of the systematic study of proverbs, sayings and aphorisms, which belong to the finest examples of oral folk art, are analysed from a linguistic perspective. The semantic and pragmatic functions of proverbs, folk expressions, wise sayings and set units are described. The article also presents, with examples, the theoretical views of linguists who have conducted research in the field of paremiology.*

***Keywords:*** *poetics, proverb, saying, aphorism, paremiology, antithesis, alliteration, irony, context, wise sayings, literary language, phraseological unit, compositions.*

Dunyo tamadduni shiddatli rivojlanib borayotgan bir davrda barcha sohalar kabi tilshunoslikda ham o'zgarishlar va yangilanishlar bo'lmoqda. Jahon tilshunosligi jumladan o'zbek tilshunosligida ham lingvistik terminlar ko'payib va kengayib bormoqda. Maqol,matal,hikmatli so'z va iboralar paremiologik birliklar sifatida o'rganilmoqda.Xususan,«Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo'lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zgusiga aylanmoqda», — deya fikr bildirgan etdi davlat rahbari.[1]

Ma'lumki, hikmatli so'z va iboralar xalqning uzoq tarixi va hayotiy turmush tarzi natijasida yuzaga keladigan til birliklari sanaladi.Har bir xalq maqol va matallarida o'z ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini namoyon etadi. Shunday ekan,paremiologik birliklar mohiyatan inson tafakkurining, xalqning ko'p asrlik ma'naviyatining misqollab saralangan ijod mahsulidir.

Paremiya (yun. paroimia-hikmatli so'z,zarbulmasal,hikoya,maqol) – ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralar, kontekst sharoitlardan tashqari hamma so'zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan mazmundagi ibratli fikr.[2]

1 Davlat tili qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkazilgan tadbirdan Gazeta.uz 2023
2 Berdiyorov H,Rasulov R "O'zbek tilining paremiologik lug'ati" T.1984

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda quyma va yaxlit bir fikrni ifodalovchi eng mayda birlik «parema»deb ataladi. Paremalar bilan shug‘ullanuvchi soha esa «paremiologiya» deb yuritiladi. U tildagi maqol, matal, hikmatli so‘z va iboralar, frazemalar kabi yaxlit kompozitsiyalarni, ya’ni nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi birliklarni o‘rganadi.

Paremalar avloddan avlodga faqat og‘zaki tarzda o‘tib kelganligi va xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Chunki ularning aksariyati she’riy shaklga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish,anafora, antiteza, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanadi. Shuningdek, paremalar so‘zlardan tuzilib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan tashkil topganligi uchun tilshunoslikning ham o‘rganish obyektidir. Paremiologiya ana shu ikki jihatni o‘zida birlashtiradi. Paremiyalar kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma’no xususiyatlarini o‘rganishi bilan frazeologiyaga yondash sohadir. Paremiologiya tilda mavjud bo‘lgan turli xil barcha iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rganadi. Ular shu jihati bilan o‘zaro farqlanadi. O‘rganish obyektinig birligi, ya’ni bir necha so‘zdan tarkib topgan turg‘un barqaror birikmalarni tekshirish paremiologiya bilan frazeologiyaning o‘xshash va umumiy tomoni hisoblanadi.

Paremalarni to‘plash,o‘rganish Mahmud Koshg‘ariyning («Devoni lug‘atit turk») va Gulxaniyning («Zarbulmasal») zamonlaridan to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devoni lug‘atit turk» asarida kitobni «hikmatli so‘zlar, sajlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar» bilan bezaganligini aytgan edi. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasinini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so‘zlardan iboratdir. Maqollarda ifodalanishi lozim bo‘lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea ro‘y bergan va bu voqea o‘ta zukko, sinchkov, dono ajdodlarimiz tomonidan kuzatilishiga sabab bo‘lgan.

Paremiologik birliklarning o‘rganish obyektlari juda keng bo‘lganligi sababli, ularning ko‘rinishlari ham turli-tumandir. Nutqimizda eng ko‘p qo‘llanadigan turlari maqol-matal tipidagilari bo‘lib, ular quyidagi uch turga bo‘lib o‘rganilmoqda.[3]

**1. Maqollar – grammatik jihatdan tugal fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli ko‘chma ma’noda yoki o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli paremiologik birliklar: «Daraxt mevasidan, odam so‘zidan bilinar», «Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin», «Bolta tushguncha, kunda dam olar», «Oltin zanglamas» kabi maqollarda xalq donishmandligi aks etgan.**

2. **Matallar** – tarbiyaviy, pand-nasihat mazmunini ifodalovchi, grammatik jihatdan to‘liq gap shaklida bo‘lgan, faqat o‘z ma’nosida qo‘llaniluvchi (ko‘chma ma’noda emas) qisqa, ixcham xalq iboralaridir. Masalan:»Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt», «Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod qoladi», «Odam olasi ichida,mol olasi tashida» kabi matallar pand-nasihat motivini aks ettiradi.

3. Aforizmlar – umumlashtiruvchi fikrni ifodalovchi qisqa, lo‘nda hikmatli iboralar.Aforizmlar ikki ko‘rinishda bo‘ladi: nutqiy va lisoniy.

**Nutqiy aforizmlar ma’lum shaxsga tegishli bo‘lib,uning asarlarida qo‘llanilgan hikmatli iboralardir. Navoiyning quyidagi aforizmi nutqiy aforizm hisoblanadi: «Odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami». Lekin mutafakkir asarlarida qo‘llangan shunday hikmatli iboralar borki, ular davrlar o‘tishi bilan qayta-qayta qo‘llanishi natijasida butun ommaga yetib borib, umumlashib,t il aforizmiga o‘tib ketgan: «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan- olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga -zolim», «Sihat tilasang ko‘p yema, izzat tilasang ko‘p dema» va boshqalar.**

**Tilga oid aforizmlar** esa xalq tomonidan yaratilgan bo‘lib, barcha uchun teng va tushunarli bo‘ladi,ya’ni butun ommaga tegishlidir.

Dastavval maqollarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning tarixi uzoq o‘tmishga taqaladi va ular turli nomlar bilan – «maqol, masal, hikmatli so‘z», «donolar hikmat», «mashoyixlar ,donishmandlar so‘zi», «otalar so‘zi», «naql», «bobolar naqli», «qayroqi so‘zlar» va «hikmat guldastalari» deb atalib kelgan.

Paremiolog olim Volfgang Mieder maqolni «Xalqning qisqa, umumiy ma’lum bo‘lgan jumlasi, unda hikmat,haqiqat, axloq va an’anaviy qarashlar esda qoladigan hikmatli so‘z». Shuningdek maqollarning ta’rifiga ishora qilib «Maqol-tajriba farzandi», «Maqol-ko‘chaning hikmati», «Maqol-to‘g‘ri so‘z», «Maqollar-aniq so‘zlar» deya ta’riflaydi.[4]

O‘zbek maqollarini ilmiy asosda o‘rganish XIX asrdan boshlangan. Ma’lum qilinishicha, XIX asr ikkinchi yarmida vengriyalik tarixchi, sayyoh Herman Vamberi O‘rta Osiyoga hoji qiyofasida kelib 19 yoshli Mulla Isoqni o‘zi bilan olib ketgan. U bilan Vengriya Fanlar akademiyasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Natijada 1865-yilda Vengriya Fanlar akademiyasining filologiya bo‘lim «Tilshunoslik axboroti»da o‘zbek xalq maqollarini nashr ettirgan. To‘plam 44 ta maqol, matal,ertak va topishmoqlarni jamlagan. Bu jamlanma Yevropa ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otgan.

«Devoni lug‘atit turk»dan olingan quyidagi misollarga murojaat qilaylik:

- «Besh qo‘l barobar emas»
- «Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq

Ma’lum bo‘ladiki, yuqoridagi har bir misol yillar davomida tajribadan o‘tgan,uning haq ekanligiga ishonch hosil qilingan,badiiy jihatdan mukammallashib brogan namuna sifatida qabul qilish mumkin. «Devoni lug‘atit turk»da «savlashmoq»so‘zi berilgan.Buning otalar so‘zi ma’nosini anglatishi aytiladi.Taxmin qilish mumkinki,bundan ming yil

3 Xalq dostonlari tilining lingvomadaniy tadqiqi.D.N.Fayzullayeva “Bookmany print” nashriyoti 2024 y

4 "Paremiologiya va frazeologiyaning xalqaro bibliografiyasi", 2009)

avval ajdodlarimiz maqollarni «sav»deb ataganlar.Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi «masal»tarzida beriladi: «Masaldurkim- uyqu o‘limdir». Masal atamasining XX asr boshlarigacha qo‘llanib kelingani ma’lum.

O‘tgan asrning 2-choragidan boshlab maqol so‘zi tez-tez uchray boshlaydi.XX asr o‘rtalaridan esa faqat maqol tarzida qo‘llandi. Professor P.U.Bakirov o‘z risolasida dunyo tillari tarkibida maqollari bo‘lmagan birorta ham til yo‘q ,deb qayd etadi va muallif maqolga quyidagicha ta’rif beradi:Har qanday tilda maqollar insoniyat jamiyatining barcha sohalarini qamrab oladi.Jamiyatning moddiy va ma’naviy faoliyatinig birin bir sohasida maqollarning aks etmaganini kuzatmaymiz.[5]

Turli xalqlar og‘zaki ijodidagi maqollarni o‘rganish bu janr namunalari mazmunan deyarli hamma xalqlarda bir xil takrorlanishini ko‘rsatmoqda. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o‘zlashtirgani bilan izohlash noto‘g‘ri. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining o‘xshashligi,insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va umuman, hayotning ko‘p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlash ayni haqiqatdir.

Masalan:»Ilon chaqqan, arqondan qo‘rqar»(ingliz), «Kuygan mushuk sovuq suvdan qo‘rqar»(fransuz), «Jo‘jani tuxum ochgandan so‘ng sana» (ingliz), «Bigizni qopda yashirib bo‘lmas»(rus) maqollari «Qo‘rqqanga arqon ilon ko‘rinar», «Sutdan kuygan qatiqni puflab ichar», «Jo‘jani kuzda sanaymiz», «Oyni etak bilan yopib bo‘lmas» kabi o‘zbek maqollari bilan o‘xshash ma’noni bildiradi.

Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o‘rin olgan javohirlar sandig‘I deyish mumkin.Ularni tilshunoslikda,lingvokulturologiyada o‘rganish davom etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davlat tili qabul qilingan kun munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirdan Gazeta.uz 2023
2. Berdiyorov H,Rasulov R»O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati» T.1984
3. Xalq dostonlari tilining lingvomadaniy tadqiqi.D.N.Fayzullayeva «Bookmany print» nashriyoti 2024 y
4. «Paremiologiya va frazeologiyaning xalqaro bibliografiyasi», 2009)

5. N.Bakirov «Milliy g‘oya targ‘ibotida o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish» Toshkent 2007

5 N.Bakirov “Milliy g‘oya targ‘ibotida o‘zbek xalq maqollaridan foydalanish” Toshkent 2007